

ZAMONAVIY TA'LIMDA ELEKTRON TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Nabiyev Dilshod Pahlavonovich

BuxDPI o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda elektron texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida ilmiy-nazariy fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, slayd, multimediya, elektron texnologiyalar, tizimni isloh qilish, mazmunli ta'lim, ta'lim standartlari, mustahkam asos va hokazo.

Jahon mamlakatlari qatorida yurtimizda ham ta'lim – tarbiya masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Ta'lim tizimini tubdan isloh qiliish odamlarimizning ong-u tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi. Bugungi zamon ta'limining oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlaridan biri yosh avlodni umumjahon standartlari asosida o'qitishdan iboratdir. Respublikamizda boshlang'ich ta'limga e'tibor borgan sari kuchayib bormoqda. Boshlang'ich sinflarni besh kunlik ta'lim tizimiga o'tkazilishi, o'qituvchilarga e'tiborning kuchayib borayotgani yanada ahamiyatlidir. O'qituvchidan esa bunga javoban yanada samarali mehnat qilish, yanada ko'proq izlanish imkonini beradi. O'qituvchi mahorati o'quvchilarning fanga qiziqishi va mavzularni puxta o'zlashtirishi bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinflarni besh kunlik ta'limga o'tkazilishi ularni dars soatlarini bir-ikki soatga ko'payishiga to'g'ri keladi. Buni hisobga olgan holda turli usullarni izlab topadi. O'quvchilarni ta'lim bilan uzviy ravishda tarbiyasiga ham alohida ahamiyat qaratiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar juda faol bo'ladi. Ularni fikrini jamlash va tinchlantirib turish, o'tiladigan mavzular mohiyatini tasavvurida shakllantirish qiyin kechadi. Huddi shunday jarayonlarda mavzuni tushuntirishda o'qituvchilarimiz biroz qiyinchilikka duch kelishadi. Shunday jarayon asosan o'qish yoki tarbiya, tabiat fanlari yani ko'proq og'zaki tushuntirishlardan iborat fanlar sirasiga kiradi. Bunday vaziyatlarda aksariyat o'quvchilar sinfdagi faolligiga qarab muloqotchanlari darsga e'tiborli bo'lishadi. Lekin shu sinfdagi fikrini to'laligicha bayon eta olmaydigan, uyatchan va xayolparast o'quvchilar biroz qiynaladi. Huddi shunday jarayonlarda darslarni integratsiyalash juda qo'l keladi.

Darslarni integratsiyalash–bu ish reja asosida mazmunan bir-biriga mos mavzularni birlashtirishdir. Masalan 2-sinf misolida oladigan bo'lsak ona tili va o'qish

savodxonligi fanidan “Kuz fasli” mavzusi bilan tasviriy san’at fanidagi “Kuz keldi” mavzusida rasm ishlash mavzusini, o‘qish fanidan “Qish” mavzusiga tasviriy san’at fanidagi “Qish manzarasi” mavzusida rasm ishlash mavzularini integrasiyalashtirib dars o‘tishni yo‘lga qo‘ysak o‘quvchilar bir paytda ham eshitadi, ham chizadi va tasavvur qiladi. O‘quvchilardagi juda ko‘p qirralarni kashf etgan bo‘lamiz. Bunday bir-biriga mos mavzularni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Olimlar kishi o‘ylab yozayotganda miyaning bir necha qismi faollashishi va shu paytda fikrni jamlash qobiliyati kamida uch barobar ortishini ta’kidlaydi. Surat chizayotganda o‘quvchining asabi tinchlanib, fikrlash salohiyati to‘liq ishga tushadi. Pedagoglarning farzandingizni bolalikdan rasm chizishga qiziqting, deya ta’kidlashi bejiz emas. Balki bola buyuk musavvir bo‘la olmas, muhimi eshitgan mavzularni to‘lalgicha tasavvur qilib, uning intellektual qobiliyati rivojlanib boraveradi. Qolaversa, qalbida san’atning biror turiga mehr uyg‘ongan o‘g‘il-qizlar tabiatan xushchaqchaq bo‘ladi. Bola o‘z fikr xayollarini qog‘ozga tushirar ekan, o‘zi sezmaganda fe‘l-atvori va psixofiziologik holati haqida ham xabar beradi. Shu bois psixologlarimiz rasmlardagi rang va tasvirni tahlil qilish orqali turli izohlarni keltirishadi. Darslarni integratsiyalash o‘quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini, o‘tilgan mavzudagi jarayon va qahramonlar qanday ko‘rinishdali va ular bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar biror manzarani tasvirlash chog‘ida ko‘z o‘ngida go‘zallik olamini yaratishga, o‘zini qurshab turgan hamma narsani chiroyli tasvirlashga intiladi. Bu esa ularni iqtidori shakllanishi va tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim va navqiron o‘zbek xalqi doimo ziyoga, ilm-hunar egallashga intilgan. Bugungi kunda farzandining yuksak qobiliyat egasi sifatida tanilib, uning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib yetishishini orzu qilmaydigan ota-onaning o‘zi yo‘q. O‘z kelayotgan yosh avlodning har jihatdan yetuk bo‘lib shakllanishida xalqimizning ezgu an‘analariga asoslangan ta’lim tarbiyaning ahamiyati cheksizdir. Kelajak vorislarini har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirish uchun barcha fanlarni mukammal o‘zlashtirib borishi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni barcha fanlarga qiziqtirish usullari ustida ish olib borilmasa yaxshi natijaga erishish qiyinlashadi.

Bolalar barcha fanlarni zo‘r ishtiyoq bilan kutib, dars boshlanishiga intiq bo‘lib turishlarini ta’minlash, bu bolalarni sevimli mashg‘ulotlarini bajarishga undashdan boshlanadi. Buning uchun esa, bizga ertaklar yordamga keladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan ertak bolalarning ta’lim va tarbiyasida eng ko‘p ahamiyat kasb etadi. Ertak bolalarni tez fikrlashga, kuzatuvchanlikka, mehnatsevarlikka, fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatadi, xotirasini mustahkamlaydi, nutq malakalarini o‘stirishga yordam beradi. O‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan ertaklarning mazmuni g‘oyat xilma-xildir. Ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib

o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqea rivojida favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining-yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakdagi hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertak tinglash, ertak qahramonlari bilan xayolan birga bo'lish barcha uchun ayniqsa, bolalar uchun maroqli. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni o'rgatishda bevosita ertakdan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Bu esa bolani qiynalmasdan, qiziqish bilan o'zlashtirishiga asos bo'ladi.

Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanilganda o'qituvchining mahorati va ta'lim oluvchining mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanib boradi. Innovatsion texnologiyalardan boshlang'ich ta'limda eng ko'p qo'llanilayotganlari multimedia va videodarslar hisoblanadi. Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarda shaxsiy individual xususiyatlari, o'quv jarayonlarida faolligi, har bir mavzuga ijodiy yondashuvi va axborot bilan ishlash kompetensiyalarining rivojlanishiga olib keladi. Shu masaladan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari ta'lim integratsiyalari va innovatsion dars ishlanmalarini ishlab chiqish, ta'limga innovatsion yondashuv nazariyalarini yaratishdan iborat.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarda innovatsion-integratsion texnologiyalardan foydalanish tizimini tatbiq etish metodikasi ishlab chiqildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga qiziqtirishda tadbiq etiladigan innovatsion-integratsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tajribada sinab ko'rildi. Tajriba sinfi o'quvchilarning o'qish fanini o'zlashtirishi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligini biz o'tkazgan tajriba tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
2. Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – С. 11-14.
3. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 302-304.
4. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – С. 101-105.
5. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 350-352.
6. Ahmadovich H. H. et al. O 'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 349-350.
7. Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 293-294.
8. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 332-334.
9. Ahmadovich H. H. et al. O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 343-345.
10. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 306-309.
11. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 100-102.
12. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 248-250.

13. Ahmadovich K. H., Bahriddinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 141-145.
14. Ahmadovich K. H., Zokirovna Z. A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 133-137.
15. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.
16. BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O‘QUVCHILAR O‘ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O‘RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.
17. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.